

**VOLEYBOL O'YINIDA TAKTIK TAYYORGARLIK USULLARI****Mamirov Nosirjon Nishanovich**

*Muhammad al-xorazmiy nomidagi toshkent axborot texnologiyalari universiteti  
farg'ona filiali.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqola voleybol va futbol seksiyasida shug'ullanuvchi o'quvchi yoshlarni musobaqalarga har tomonlama tayyorlash, texnik-taktik, jismoniy, funksional, ruhiy tayyorgarligini yaxshilash va ularning mazmuniga oid nazariy bilimlarni umumlashtirgan va umumiy ta'lim maktablari jismoniy tarbiya dasturining "Voleybol" bo'limi, BO'SM larning voleybol guruhlarida mashg'ulotlarida foydalanish uchun mo'ljallangan. Undan jismoniy tarbiya yo'nalishi talabalari va o'rta ta'lim maktablari jismoniy tarbiya o'qituvchilari, bolalar va o'smirlar maktabining voleybol bilan shug'ullanuvchilarini boshlang'ich tayyorgarlik guruhlarini murabbiylari, jismoniy tarbiya bo'yicha tashkilotchi-yo'riqchilari va barcha mazkur sport o'yini ixlosmandlari foydalanishlari mumkin.*

**Kalit so'zi.** *Jismoniy tarbiya, jismoniy sifat, jismoniy professional, voleybol*

**Abstract:** *This article summarizes theoretical knowledge about the comprehensive preparation of young students engaged in volleyball and football for competitions, improving their technical-tactical, physical, functional, mental preparation and their content, and the "Volleyball" section of the physical education program of general education schools. It is intended for use in training in volleyball groups of secondary schools. It includes students of physical education and physical education teachers of secondary schools, volleyball players of children's and youth schools, coaches of primary training groups, organizers-guides of physical education and All sports fans can use it.*

**Key word.** *Physical education, physical quality, physical professional, volleyball*

Voleybol o'yinida taktik tayyorgarlik usullari

Voleybol o'yini taktikasi deyilganda, sportchi va jamoaning imkoniyatlari, raqibning xususiyatlari hamda musobaqaning aniq shart-sharoitlarini hisobga olgan holda musobaqada samarali ishtirok etishga muvofiq keladigan rejani ishlab chiqib, sportchi va jamoaning imkoniyatlarini to'la namoyon etadigan vosita, usullardan foydalanish nazarda tutiladi. Voleybol jamoaviy o'yin sanaladi, shuning uchun o'yinchilarning o'zaro munosabatlariga alohida e'tibor qaratish lozim. Voleybolda har bir o'yinchining o'z funksiyasi mavjud. Bularga birinchi va ikkinchi tempdagi hujumchilar, bog'lovchi o'yinchi va libero funksiyalarini bajaruvchilar kiritiladi. Bu o'yinchilarni tanlash, o'yin funksiyalarini belgilash va maydonchaga joylashtirishda ularning shaxsiy sifat ko'rsatkichlari va qobiliyatlariga (bo'y, tezkorlik, sakrovchanlik, koordinatsiya va taktik tafakkur) asoslaniladi.

Birinchi tempdagi hujumchi – bu hujumda, to'siq qo'yishda va pastdan to'p qabul qilishda ishonchli o'yinchi hisoblanadi. Ikkinchi tempdagi hujumchi har tomonlama



(universal) tayyorgarlikka, ya'ni yuqori faollikka (ayniqsa tezkor) ega bo'lib, hujum va himoyada yuqori malakaga erishgan bo'lishi kerak. Hujumchilarni «temp bo'yicha» ajratish shartli asosda qabul qilingan, shuning uchun hujumchilardan barcha hujum usullarini va taktik kombinatsiyalarni amalga oshirish talab etiladi.

Bog'lovchi o'yinchi o'yinning borishini to'g'ri baholay olishi va turlicha bo'lgan o'yin vaziyatlaridan hujumni samarali tashkil eta olishi lozim. Shu sababli bu funktsiyani bajarishga o'yinni nozik jihatlarigacha tushunadigan, jamoaning fikrini tezda anglab, o'yin mohiyatiga mos kombinatsiyalarni tashkil eta oladigan, keng fikrli, vazmin o'yinchilar tanlanadi. O'yinni samarali tashkil etishda jamoa imkoniyatlaridan kelib chiqib, uni quyidagi tamoyilda tashkil etish mumkin: 4+2 (to'rtta hujumchi va ikkita bog'lovchi o'yinchilar) va 5+1 (beshta hujumchi va bitta bog'lovchi o'yinchi). Oxirgi variant hozirgi zamon voleybolida juda keng qo'llaniladi.

O'yin taktikasi o'zi bilan aniq vaziyat va jamoani tayyorgarligini hisobga olib, o'yin olib borish shakli va vosita, usul, harakatlarni maqsadga muvofiq qo'llashni ifodalaydi. Bu jamoaning belgilangan harakatlari yordamida sportcha kurashni tashkillash deganidir. Shuning uchun mashg'ulotlarda taktik tayyorgarlikka alohida

e'tibor qaratish lozim. Taktik mahorat o'yinchiga individual harakat qilish va sheriklari

bilan o'zaro bog'liq harakatlanish imkoniyatini beradigan aniq malaka va ko'nikmalarga

asoslanadi. Ko'proq o'zgaruvchan taktikani qo'llashga olib keladigan barcha texnik usullar

va ularni qo'llash usullari o'yin olib borish vositalari hisoblanadi. Raqib bilan o'ynashda

qo'llaniladigan ratsional individual, guruhli va jamoaviy harakatlar o'yin olib borish

usullari deb ataladi. Individual harakatlar – bu alohida taktik vazifalarni hal qilishga

yo'naltirilgan o'yinchining mustaqil ravishda harakat qilishidir. Guruhli harakatlar o'zi bilan

aniq vazifani bajarayotgan ikki yoki bir necht o'yinchilarning o'zaro g'arakatlanishini

nazarda tutadi. Jamoaviy harakatlar – barcha o'yinchilarning himoyada va hujumda

belgilangan vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan o'zaro harakat qilishlaridir. O'yin sistemasi

jamoa o'yinchilarining bir-biriga bog'liq o'zaro harakatlarini aniq tashkillash bo'lib,

o'yinchilarning maydondagi joylashishi va ularning bajaradigan vazifalariga asoslanadi.



Taktik kombinatsiyalar – bu o'yinchilarning kelishilgan harakati bo'lib, hujum yoki qarshi hujumni samarali yakunlashga yo'naltiriladi. O'yin olib borish shakli – bu jamoa harakatini namoyon qilish xarakatidir. Bu o'yin sur'atini o'zgartirish, raqibni o'z o'yin usuliga majbur qilishni bilish, zahiradan foydalanish, tanaffus olish, o'yinda intizomga qat'iy rioya qilish va oxirigacha kurashishni bilish kabilarda ko'rinadi. O'yin taktikasi himoya va hujum taktikalariga bo'linadi. Bu bo'limlar o'yinchini harakatlanishini tashkillash prinsipidan kelib chiqib, quyidagi guruhlariga bo'linadi: individual, guruhli va jamoaviy. O'z navbatida o'yin olib borish shakliga qarab har bir guruh alohida turlarga bo'linadi. Misol uchun, hujumdagi individual harakatlar o'yinchining to'psiz va to'p bilanharakat qilish kabilarga bo'linadi. Bu turlar o'yin harakatlarining aniq mazmunidan kelib chiqib, sistemalar va usullarga bo'linadi. Misol uchun, hujumda ikkinchi uzatishini oldingichiziq o'yinchisi orqali bajarish o'yin sistemasi yoki hujumda ikkinchi uzatishni orqa chiziqdan chiqib keladigan o'yinchi orqali o'ynash sistemasi. Bajarilishi xususiyatiga ko'ra alohida usullar kombinatsiyalar va variantlarga bo'linadi. Misol uchun, ikkinchi uzatishni oldingi chiziq o'yinchisi orqali o'ynash o'yin sistemasida hujum qilish usuli to'p uzatuvchining zonasiga qarab uch variantga bo'linadi, ya'ni 3,2,4 zonalardan o'yinchining to'p uzatish variantlari.

O'yinchilarning vazifalari.

Jamoani harakatlarini tashkillash uchun o'yinchilar o'rtasida vazifalarni taqsimlash zarur. Taqsimlash bir qancha shartli bo'ladi. O'yin qoidalari bo'yicha ular maydonning zonalariga o'tish va oldingi hamda orqa chiziqdarida harakat qilishlari kerak. Shuning uchun birinchi navbatda o'yinchilarni har tomonlama va universal qilib tayyorlash juda muhim



ahamiyatga ega.

Jamoani jamlash yoki to'ldirish.

Komandani to'ldirish har bir o'yinchini individual o'yinni kuchli tomonlarini hisobga

olib, o'yinchilarni tanlab olish prinsipi bo'yicha ularning chiziqlaridagi vazifalarga va

boshlang'ich joylashuv zonalariga mos ravishda kuchni ratsional taqsimlash uchun

o'tkaziladi ( boshlang'ich joylashuv zonolari 4-1, 3-6, 2-5 ). Shuni hisobga olish kerakki,

nafaqat boshlang'ich oltilik, balki butun jamoa to'ldiriladi. Tarkibda boshlang'ich oltilik

vazifalarini bajarishga loyiq o'yinchilar bo'lishi lozim. Jamoani to'ldirishning har qanday

prinsipi uchun hujumda o'yin olib borishning harqanday sistemasi joriy qilinishi mumkin.

Boshlang'ich oltilikda to'ldirishni bir qancha prinsiplari bor: uch xujumni uzatuvchi o'yinchi

(3-3); bu prinsip yangi tuzilgan jamoalarda ko'proq qo'llaniladi;

To'rt hujumchi va ikki to'p uzatuvchi (4-2); Besh hujumchi va bir to'p uzatuvchi (5-1).

Turli vazifalarni bajaradigan o'yinchilarni 3-3 princhipi bo'yicha oltilikni jamlashda ular

maydonda bitta hujumchi va bitta to'p uzatuvchi tarzida taqsimlanib joylashadilar.

O'yinchilarni 4-2 sistemasida to'ldirishda bir xil vazifalarni bajaruvchilar (ikki to'p uzatuvchi,

ikkita yordamchi hujumchilar va ikkita asosiy hujumchilar) qarama-qarshi zonalarda

joylashadilar. Bunda to'p uzatuvchilar asosiy hujumchilar bilan yonma-yon yoki yordamchi

hujumchilar bilan ham yonma-yon joylashishlari mumkin (3-6 yoki 2-5 zonalarda).

5-1 prinsipi bo'yicha o'yin tizimida oltilikni to'ldirishda hujumchi to'p uzatuvchi bilan

qarama-qarshi zonada turib har zonada to'p uzatuvchi vazifasini ham bajaradi. Ba'zida 6-6

o'yin sistemasida komandani to'ldirish ham uchrab turadi, bunday holatda barcha o'yinchilar

hujumda ham, himoyada ham yaxshi o'ynab, barcha vazifalarni a'lo darajada bajarishlari talab



qilinadi.

## IQTIBOSLAR

1. Orifjon, M. (2021). NO ONE CAN MAKE THE COUNTRY FAMOUS IN SPORTS. *GalaxyInternationalInterdisciplinaryResearchJournal*,9(12),908-911.
2. Nishanbayevich, M. O. (2022). Volleyball as a Means of Developing Physical Qualities of University Students. *American Journal of Social and Humanitarian Research*, 3(10), 89-94.
3. Madaminov, O. (2021). The role of the volleyball game in the system of physical education (Alookathistory).*AsianJournalofMultidimensionalResearch*,10(10),1472-1477.
4. Nishanbayevich, M. O. (2022). Outdoor Games in The System of Physical Culture and Sports in Higher Education. *Texas Journal of Multidisciplinary Studies*, 5, 18-20.
5. Nishanbayevich, M. O. (2022). FOOTBALL AS A BASIC TOOL PHYSICAL EDUCATION OF STUDENTS. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(2), 462-466.
6. Мадаминов, О. (2022). ПРОБЛЕМЫ СУДЕЙСТВА В СПОРТЕ НА СОВРЕМЕННОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ ОБЩЕСТВА. *ЇОДКОР О'ЇИТУВЧИ*, 3(25), 41-46.
7. Мадаминов, О. (2022). ВОЛЕЙБОЛ КАК СРЕДСТВО РАЗВИТИЯ ФИЗИЧЕСКИХ КАЧЕСТВ СТУДЕНТОВ ВУЗА. *ЇОДКОР О'ЇИТУВЧИ*, 2(24), 30-36.
8. Мадаминов, О. Н. (2023). УЛУЧШЕНИЕ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВКИ И ТРЕНИРОВОЧНОГО ПРОЦЕССА У ЮНЫХ ВОЛЕЙБОЛИСТОВ. *International Bulletin of Applied Science and Technology*, 3(4), 192-196.
9. Orifjon, M. (2023). A scientific-methodical approach to improving the individual skills of young football players. *INTERNATIONAL JOURNAL OF SOCIAL SCIENCE & INTERDISCIPLINARY RESEARCH* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 12(02), 39-43.
10. Madaminov Orifjon Nishanbayvich. Different Methods in Volleyball Training Application Methodology. *American JournalofLanguage,LiteracyandLearninginSTEMEducation* www. grnjournal.us. 2023 10.05. ISSN (E): 2993-2769, ImpactFactor: 6.536. 35-38.
11. Bakhodirovna, K. B. (2023). RESEARCH OF MORPHOLOGICAL FEATURES AND PHYSICAL DEVELOPMENT OF YOUTH. *Global Book Publishing Services*, 1-99.
12. Хаитбаева, Б. (2023). СОДЕРЖАНИЯ УПРАЖНЕНИЙ РИТМИЧЕСКОЙ ГИМНАСТИКИ С ЭЛЕМЕНТАМИ КЛАССИЧЕСКОЙ АЭРОБИКИ. *ЇОДКОР О'ЇИТУВЧИ*,3(27),110-115.



13. Хаитбаева, Б. (2023). ВОЗДЕЙСТВИЕ РИТМИЧЕСКОЙ ГИМНАСТИКИ НА ОРГАНИЗМ ЗАНИМАЮЩИХСЯ. Finland International Scientific Journal of Education,

SocialScience&Humanities,11(3),1079-1084.

14. Bakhodirovna, K. B., & Kayumovna, R. M. (2022). FORMATION OF MOTOR CULTURE

OF STUDENTS IN THE LESSONS OF RHYTHMIC GYMNASTICS. INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES

ISSN:2349-7793ImpactFactor:6.876,16(10),118-124.

15. Bahodirovna, X. B. (2022). The use of rhythmic gymnastics in the practice of school

physical education teachers on the example of the city of fergana. International Journal of

Pedagogics,2(05),1-4.

16. Bahodirovna, X. B., & Ilxomjonovich, I. I. (2022). THE USE OF RHYTHMIC GYMNASTICS IN THE PHYSICAL EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN ON THE EXAMPLE OF THE CITY OF FERGANA. International Journal of Pedagogics, 2(05),9-12.

17. N. Mamirov THE ISSUE OF YOUNG PEOPLE IN ENGAGEMENT IN PHYSICAL EDUCATION nternational Journal of Education, Social Science & Humanities. 2023 22. 10. 395-400

18. N. Mamirov Yurtimizda kurash sport turning rivojlanishi va yoshlar hayotidagi o'rne. Journal of integrated education and research. 2022. 10. 12 yil 317-321

19. Eshnazarov J. Jismoniy madaniyat tarixi va boshqarish. –Toshkent.: Fan va texnologiya. 2008. –B. 105.

20. Zayniddinov T.B. Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining pedagogik faoliyati // Jismoniy tarbiya va salomatlik jurnali.2019, 2(75). –B.60.

1. Ислмов, И. А. (2022). ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ТЕХНИК ҲАРАКАТЛАРИНИ НАЗОРАТ ҚИЛИШ АСОСИДА ЧАҚҚОНЛИК СИФАТЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ (КУРАШ МИСОЛИДА). INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL, 3(4), 7-11.

2. Islamov, I. A. (2021). Fundamentals of promotion of sports and competitions and physical training among school students. Current research journal of pedagogics, 2(06), 85-89.

3. Islomkhoja, I. (2020). Socio-pedagogical purposes of modern physical education. Electronic journal of actual problems of modern science, education and training.



4. Azimkhojaevich, I. I. (2022). PEDAGOGICAL FEATURES OF INCREASING STUDENT MOVEMENT ACTIVITY (ON THE EXAMPLE OF WRESTLING AND MOVING GAMES). Science and innovation, 1(B2), 295-299.
5. Islomkhoja, I. (2021). STUDY OF STUDENT LEVELS OF MOVEMENT ACTIVITY AND INTEREST IN PHYSICAL TRAINING AND SPORTS TEACHER OF FACULTY OF PHYSICAL CULTURE. Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities, 1(1.5 Pedagogical sciences).
6. Khaydarov, B. Y. (2021). The meaning and methods of determining the composition of the human body. Asian Journal of Multidimensional Research, 10(10), 1085-1089.
7. Voxodirjon, X. (2022). O DAM TANA TUZILISHINI TAXLIL QILISH. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 108-114.
8. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. (2022). ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(20), 104-107.
9. Хайдаров, Б., & Алижонова, Д. ЖИСМОНИЙ СИФАТЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ ГИМНАСТИК МАШҚЛАР ТЕХНИКАСИГА ТАЪСИРИ. MATERIALLARI TO 'PLAMI, 112.
10. Makhsudov, R. A. (2020). Comparative analysis of the physical performance of senior persons with regulatory requirements. Fan-Sports, (3), 59.
11. Махсудов, Р. А. (2020). УМУМТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИ БИТИРУВЧИЛАРИНИ ЖИСМОНИЙ ТАРБИЯ ФАНИДАН НАЗАРИЙ БИЛИМЛАРИНИ МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ. ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ, (SI-2№ 2).
12. Махсудов, Р. А. (2020). СОПОСТАВИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФИЗИЧЕСКОЙ ПОДГОТОВЛЕННОСТИ СТАРШЕКЛАССНИКОВ С НОРМАТИВНЫМИ ТРЕБОВАНИЯМИ. Fan-Sportga, (3), 59-60.
13. Махсудов, Р. (2019). Оценка двигательной подготовленности старшеклассников по выполнения учебных нормативов по физическому воспитанию в общеобразовательных школах. Наука сегодня: проблемы и перспективы развития, 94.
14. Makhsudov, R. A. (2019). IMPROVEMENT OF THEORETICAL KNOWLEDGE OF HIGH SCHOOL STUDENTS IN THE SUBJECT OF" PHYSICAL CULTURE. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).
15. Махсудов, Р. (2019). Мониторинг физического развития юношей старших классов общеобразовательных школ. Наука сегодня: опыт, традиции, инновации, 47.